

SHUHRATNING “OLTIN ZANGLAMAS “ASARINING POETIK TAHLILI

Qurbanova Gavxar Xurramovna

*Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasи o‘qituvchisi*

Jo‘rayeva Malohat Odiljon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada yozuvchi Shuhratning “Oltin zanglamas” asarida aks etgan ikkinchi jahon urishi davrida o‘zbek xalqining fashist bosqinchilarga qarshi mardonovor kurashi, millatning hamjihatligi, matonatli bir oilaning taqdiri haqida so‘z yuritilgan. Hamda bir ziyoli o‘qituvchi misolida butun millatning qanchalik jonkuyarlik ko‘rsatganligi, asarda urish va tinchlik qadri, yomonlik, hasad, shaxsparastlik kabi illatlar qoralanib, insoniylik, mehr-muhabbat, do‘stlik, vatanga sodiqlik, ona mehri kabi sifatlar ulug‘langan.

Kalit so‘zlar: oila, vatanga mehr, fashist, do‘stlik, ona mehri, ozodlik, urush, sadoqatli rafiqqa.

XX asrning oltmishinchi yillaridan boshlab o‘zbek adabiyoti yangi davrga qadam qo‘ydi. Bu davrga kelib shaxsga sig‘inish shaxsga sig‘inish illatlari qoralanadi. Bundan ham muhimi urushdan keyin qatag‘onlik siyosati qurbanlari bo‘lgan ziyorilar, adiblar ozodlikka chiqdilar. Ularning maqomi yana tiklanib, ijodini tiklashga imkoniyat paydo bo‘ldi. Ana shunday yozuvchilardan biri Shuhratdir. Shuhrat ham ozodlikka chiqqandan so‘ng “Shinelli yillar“, “Oltin zanglamas “ singari buyuk ijod namunalari dunyo yuzini ko‘rdi. Shuhratning “Oltin zanglamas “asari 1967-yilda yozilgan bo‘lib, asarda eng ziyoli qatlamlardan bo‘lgan o‘qituvchilik kasbiga alohida urg‘u berib o‘tilgan. Asarda odamiylik, yaxshilik, muhabbat, hasadgo‘ylik, ona mehri, sevgi kabi tuyg‘ular aks etgan. Bu asarni o‘qir ekansiz, chekka bir qishloqlik og‘ir vazmin yigit bilan shaharning sho‘x- shaddod qizining sof muhabbatiga guvoh bo‘lasiz. Asarni o‘qiy turib kitobxonda qiziqish uyg‘onadi, asar qahramonlarining o‘rnida o‘zini tasavvur qilib ko‘radi va asarning qanchalik darajada tasirchanligini anglamasdan boshqa iloji qolmaydi.

Adib asarning kirish qismini Qodirning Azizaga bo‘lgan muhabbati bilan boshlaydi. Ularning sevgisi bolalarcha beg‘ubor edi. Qodir bir ko‘rishda oshiq bo‘ladi, Azizani asarda haqiqiy o‘zbek ayollarida bo‘lgani singari ibo –hayosi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi , mehri bilan alohida ta’kidlaydi. Garchi muhabbat, sodiqlik va ishonch asosida barpo etilgan bo‘lsada, befarzandlikdan qiynalgan oila tasviri aks etgan. Bizga

ma'lumki o'zbek xalqi bolajon xalq, Sodiq bilan Jannatning eng og'riqli nuqtasi ham shu edi. Sodiq ichini kemiryotgan dardini ayoliga sezdirmasada, Jannat buni ich – ichidan his qilar, bu azob unga tinchlik bermasdi. Avvaliga eriga bildirmay ichidan kuydi, birovga aytishga ham uyaldi, yoshlik qildi, xilvatga o'tib yig'ladi. Bunday og'ir damlarda Adolat xola uning boshini silardi.

Sabr qiling, jon bolam "Sabrning tagi –sariq oltin" deya unga tasalli bo'lardi. Adolat xola har gapining orasida "jon bolam" so'zini ishlatgani uchun ham unga "Jonbolam xola" deya tarif ham berilgan. Sodiqdek matonatli, ziyoli inson yangi joyga ko'chib borganda ham o'zining jonkuyarligi, mehnatkashligi bilan tezda o'rnini topib keta oladi. Shunday bo'ldi ham uni yangi maktabga juda iliq kutib olishdi, yangi shaharga borib birinchi bo'lib uchratgan insoni Mirsalim bo'ldi. Mirsalimning insoniy sifatlari unchalik maqtarli emas: juda ham mansabparast, tilyog'lamachi, o'zining maqsadlari yo'lida hech narsadan tab tortmaydigan kishi. U shu maqsadlari yo'lida Sodiq bilan do'stlashadi. Unga o'zining ikkiyuzlamachiligin sezdirmaydi ham. Sodiqqa o'zini juda yaqin insonidek munosabatda boladi. Bora-bora o'zining ayblari fosh bo'la boshlagandan so'ng, Sodiqqa chog' qaziydi. O'zining yoniga bir ikkita Sodiqda qasdi bor insonlarni yig'ib, o'zining g'arazli niyyatini yo'lida ishlatadi. Mirsalim tufayli Sodiqning oilasi ham buzilib ketadi va bir juvonga uylantirib qo'yadi. Aslida bu Mirsalimning rejasini bir qismi edi. Sodiq o'sha ayoldan farzandli ham bo'ladi, lekin hamma narsa unga uylangandan so'ng yuz beradi. Jannat bunga o'zi rozilik berib ,qanchalik og'ir bo'lmasin uydan chiqib ketadi. Sodiq tuhmat bilan qamaladi, o'zini oqlash uchun qanchalik harajat qilmasin befoyda edi. Uni qamoq jazosini o'tash uchun uzoq joyga jo'natishadi. U yerda ham o'zining jonbozligi, mehnatkashligi bilan qo'lidan kelganicha jon jahdi bilan, ishlaydi. Yurtga nafim tegmasa qanday inson bo'ldim deya unga bor kuchi bilan hizmat qiladi.

Og'ir kunlar ya'ni, urush boshlandi. Butun xalq og'ir vaziyatda qoldi. Hamma o'z yaqinlarini, kimdir erini, kimdir erkatoy o'g'lini, kimdir akasini –ukasini sovuq urushga jo'natishga majbur bo'ldi. Qanchalik og'ir bo'lmasin, bu ularning vatan oldidagi burchi hisoblanadi. Sodiqlarni ham osha vaqtida boshqa joyga ko'chirishga majbur bo'lishadi. Yo'lda ular bilan mudhish hodisa yuz beradi: ular ketyotgan poyezd atrofida bomba portlaydi va ularning poyezdi qulab tushadi, Sodiq va uning do'sti Bogun, Dilovarxo'ja omon qoladi. Ular vaziyat taqozosi bilan qochishga majbur bo'ldi. Ular birgalikda frontga yo'l oladi. Sodiq urushda ham jonbozlik ko'rsatadi, o'zining qahramonligi mardonavorligi bilan nemis askarlarining ma'lum qismini yo'qotishga ko'mak beradi. Urushda bir necha bora yaralanadi, atrofidagilar uning joniga qasd qilishga ham urinishadi lekin bunga erisha olamaydi. Buning sababi ularni xoyinlikdan qaytarmoqchiligi edi. Dilovarxo'ja o'z yurtini nemislarga sotib, ular tomonga o'tib vatangado bo'lmoqchi edi. Sodiq uning bu niyatini vaqtida anglab yetib, unga qarshilik ko'rsatadi. Sodiqda or –nomus, e'tiqod juda kuchli edi. O'zini qamoq

jazosidan qochganligini sira ham hazm qilolmas edi, bu unga juda ham yomon ta'sir qilar, vijdon azobida yonardi. Nainki, uning joyida boshqa odam bo'lganda bir chekkada yashirinib urush tugashini kutishi ham mumkin edi, lekin Sodiq bunday qilmadi, qilolmasdi ham.

U qamoqqa borib to'rt devor orasida jimgina kutishdan ko'ra, vatanining ozodligi yolda jon berishni avzal ko'rdi. Menimcha ham bu to'g'ri qaror edi. Sodiqdek vatan mehri bilan yonadigan insonlar juda kamyob. Uni huddi sayqallangan olmosga qiyoslasak adashmaymiz. Sodiq qamoqda ekanligida uning oilasida turli hil yomon hodisalar sodir bo'ladi uning ayoli Musharraf juda erka-tantiq, bo'lishi barobarida o'ta ketgan yengil tabiat ham edi. Sodiq qamalgandan so'ng u o'z hunarlarini ko'rsata boshlaydi. Eridan taloq berishini ham so'raydi. U yomon qilmishlari orqasidan o'lim topadi va kichkintoy o'g'li Marat Jonbolam xolani qo'lida qolib ketadi. Jonbolam xola uni juda yaxshi tarbiyalayd. Oradan ancha vaqt o'tib Jannat ham ular bilan yashay boshlaydi va u Sodiqni kechiradi. Qodirni ham urushga safarbar qilishadi, Aziza bilan hayrlasharkan unga aytolmagan gaplari ko'pligidan afsuslanadi. U urushga borib asirga tushadi va ko'plab og'ir kunlarni boshdan kechiradi. Sodiq boshidan yaralanib kasalxonaga tushadi va o'sha yerda Aziza bilan ko'rishadi. Aziza ham frontda edi, uning kasbi shifokor. U ishlaydigan shifoxonaga Sodiqni olib borishadi. Sodiqning unga mehri tushadi va shu o'rinda "Ota bolasi bo'lishdan, odam bolasi bo'lishlik naqadar afzalligini" tushunadi. Sodiq umrining eng oxirgi lahzalarini ham insonlarni o'limdan asrab qolish uchun sarflaydi. Bu juda kata matonat. U katta bir shifoxonaga o'rnatilgan bombani zararsizlantirish uchun, og'ir ahvolda bo'lishiga qaramay o'zi boradi. Va o'sha chog'da boshi yana lat yeydi, yarim soatdan keyin, bu yorug' olamdan ko'z yumadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sodiq kabi insonlar bu hayotda juda kamyob. Uning ismi jismiga juda mos va xos. Uning oilasi tinch totuv, hotirjam hayot kechiradi, necha yil deganda uning nomiga aytilgan fisqu –fasodlardan holi bo'ladi. Uning qilgan say –harakatlari bejiz ketmaydi. "Oltin zanglamas" deb bekorga aytilmaydi. Sodiq oltin odam edi, o'g'li ham oilasi ham u bilan fahrlanadi. Romanning tasirchanlik kuchi juda ham yuqori uni o'qigan inson befarq bo'la olmaydi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shuhrat. Oltin zanglamas.-Toshkent: ZUKKO KITOBOXON, 2023. – 512 b.
2. Majidova Shahnoza Komilovna, & Normamatova Husnora Shomamat qizi. (2024). XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFATLARLARNING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS*, 57(1), 153–157.
3. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO'LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(1), 648–653.

4. Majidova Shahnoza Komilovna, Ne'matova Jahonbibi Davron qizi. (2024). FEATURES OF THE USE AND EXPRESSION OF THE WATER LAXEM IN THE WORKS OF M. KOSHGARI, Y.H.KHAJIB, Z.M.BABUR. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(01).
5. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
6. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdukarimovna. (2023). Ta'lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 154–162.
7. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
8. Sahkiba Saidmuradova, & To‘lqinova Madina. (2024). ALISHER NAVOIY SHE’RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, 57(1), 147–152.
9. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE’RIYATI VA TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, 57(1), 143–146.
10. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 168–170.
11. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛИМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, 46(1), 67–69.
12. Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(1), 63–75.
13. Nodira Hamidova. (2024). G‘AFUR G‘ULOM HIKOYALARIDA SO‘Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. *PEDAGOGS*, 57(1), 139–142.
14. Qurbonova Gavhar Xurramovna, & Avazova Dilfuz. (2024). ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA O‘XSHATISHLAR. *PEDAGOGS*, 57(1), 158–160.
15. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi, & Qahhorova Dinora Shuhrat qizi. (2024). XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA O‘XSHATISH VA METAFORANING KONTEKSLARDAGI O‘RNI. *PEDAGOGS*, 57(1), 161–167.